



_____ hokimligi
*maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi*

_____ maktabgacha va
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
geografiya fani o'qituvchisi*

_____ning
*20__-20__-o'quv yilida 7-sinflar uchun
I chorak geografiya fanidan*

DARS

ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili 7-sinflar uchun geografiya fanidan I chorak
taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Soati	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Kirish.Geografiya haqida tushuncha	1		
2.	Geografik kashfiyotlar va hozirgi zamon geografiyasi.	1		
3.	Geografik xaritalar.	1		
4.	Geografik koordinatalar.	1		
5.	Masshtab.	1		
6.	Amaliy mashg‘ulot.	1		
7.	Geografik qobiqning chegaralari, xususiyatlari.			
8.	Geografik qobiqning rivojlanish bosqichlari.	1		
9.	Litosfera va uning harakatlari.	1		
10.	Yerning iqlim mintaqalari.	1		
11.	1-Nazorat ishi	1		
12.	Landshaftlar.	1		
13.	Yer yuzi aholisi va uning tabiatga ta’siri.	1		
14.	Dunyo okeani va uning qismlari.	1		
15.	Dunyo okeani tubining geologik tuzilishi va relyefi.	1		
16.	Okean suvining xususiyatlari.	1		
17.	2-Nazorat ishi			
18.	Okean boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish.	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Geografiya fani haqida tushuncha

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: Yer yuzidagi yirik suvlik va quruqliklar — materiklar va okeanlar, ularning qismlari tabiati, ularda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, geografiya fani va uning tarmoqlari, qadimgi va hozirgi zamon geografik tadqiqotlari, ularning mazmun-mohiyati, zamonaviy geografik tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlarini tushuntirish, geografik xaritalar, ularning turlari va xaritalardan foydalanish, geografik koordinatalar, ulardan kundalik hayotda foydalanish masalalari bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: materiklar va okeanlarni o'rgangan sayyohlarning faoliyati, turli materiklar iqlimi, suvlari, tabiat zonalari, okeanlar va ularning yirik qismlari — dengizlar, qo'ltiq va bo'g'izlar tabiati bilan yaqindan tanishtirish.

Yer yuzasining katta qismlari qanday qilib tasvirlanishini va ulardan qanday foydalanish mumkinligini, yer yuzining tabiati, aholisi, uning xo'jaligini, insonning tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish masalalarini tushuntirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: geografik qobiq, uning tuzilishi va xususiyatlari, geografik qobiqning rivojlanish bosqichlari haqidagi qiziqarli ma'lumotlar sayyoramiz iqlimini mo'tadillashtirib, quruqlikni suv bilan ta'minlashda qatnashuvchi dunyo okeani, dengizlar, ulardagi suvning xususiyatlari va materiklar tabiati shakllanishida okeanlarning ahamiyatini tushuntirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

mustaqil fikrini og'zaki va yozma tarzda ifoda eta olish, o'zining mustaqil fikrini og'zaki va yozma tarzda ifoda eta olish, guruhlarda ijodiy tarzda ishlay olish, loyihalarni tuzish va himoya qila olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: :

geografik adabiyotlardan samarali foydalana olish, ular asosida mavzuli axborotlarni tayyorlay olish, ommaviy axborot vositalari hamda Internet-saytlardan geografik mazmunga ega bo'lgan ma'lumotlarni topa olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, interfaol.

Dars jihozi: tarqatma materiallar, darlik, tarsviriy san'at turlariga doir ko'rgazmalar, rasmlar, qalamlar, rasm daftari.

Texnik jihozlar: proyektor, kompyuter, multimedia, slaydlar.

Darsning metodi: og'zaki, suhbat, amaliy va savol-javob.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. o‘tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkazish, uy vazifasini bajarilishini ko‘zdan kechirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Geografiya va uning tarmoqlari haqida tushuncha. Geografiya juda qadimgi fan. Miloddan avvalgi III asrda yunon olimi Eratosfen “Geografika” nomli kitob yozib, ushbu fanga asos solgan. Yunoncha “ge” — Yer, “grafo” — yozamandegan ma’noni bildiradi. Demak, “geografiya” so‘zi “yerni tasvirlab yozaman”, “yerning tasviri” degan ma’nolarni anglatadi.

Geografiyaning o‘rganish obyekti — geografik qobiq. U Yer sayyorasining o‘ziga xos qobig‘i. Bu haqida siz keyingi mavzularda batafsil o‘rganishingiz mumkin. Geografiya Yer yuzining tabiati, aholisi, uning xo‘jaligini, insonning tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish masalalarini o‘rganadigan fandir. Geografiya bilan shug‘ullanadigan kishilar geograflar deb ataladi. Uzoq vaqtgacha geograflar Yer yuzi tabiati, aholisi va ayrim hududlarning xo‘jaligini tasvirlab yozish bilan shug‘ullandilar. Geograf-sayyohlar yangi yerlarni, dengiz va okeanlarni kashf qildilar. Biroq Yer yuzini tasvirlash, sayyoramizning kattaligini aniqlash, xaritasini tuzish uchun bir necha ming yillar kerak bo‘ldi. Geografiya fani rivojlanib borgani sari unda bir qancha tarmoqlar shakllandi. (1-rasm)

Tabiiy geografiyani o‘rganishning ahamiyati. Tabiiy geografiya Yer yuzi tabiatining holati, uning o‘zgarishi, ro‘y beradigan tabiat hodisalarini, tabiatdan foydalanganda nimalarga e’tibor berish zarurligini o‘rganadi. Shuning uchun Siz, aziz o‘quvchilar, tabiiy geografiyani puxta o‘rganishga harakat qiling. Inson yashashi uchun zarur bo‘lgan hamma narsani — havo va suvni, oziqovqat va foydali qazilmalarni tabiatdan oladi. U uy-joylar, zavodlar, shaharlar quradi, konlarni ochadi, g‘alla, paxta va boshqa ekinlar ekadi, bog‘lar bunyod etadi, chorva mollarini boqadi. Tabiat boyliklaridan unumli foydalanish, uni avaylab-asrash uchun geografiya fanini yaxshi bilish zarur. Tabiiy geografiya Yer yuzi yoki uning biror joyi tabiatiga ta’rif berish bilan chegaralanmaydi. Tabiiy geografiya sayyoramiz tabiati xilmaxilligining sabablarini tushuntiradi. Masalan, cho‘l zonalarida yog‘ingarchilikning kam, tog‘li hududlarda esa, aksincha, ko‘p bo‘lishini; tog‘lar ustida jazirama yozda ham qor erimay yotishini; ayrim joylarda yil bo‘yi ob-havo bir xil — issiq bo‘lishini; boshqa hududlarda esa to‘rt fasl aniq almashinib turishini tushuntirib beradi.


IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1 Tabiiy geografiyani o‘rganish hayotda qanday muammolarga yechim topishda yordam beradi?

2 Geografiya nimani o‘rganishi haqida oila a’zolaringiz bilan fikr almashing va xulosalaringizni daftarda qayd eting.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e’lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.



1-rasm. Geografiya fani va uning tarmoqlari

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Geografik kashfiyotlar va hozirgi zamon geografiyasi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: Yer yuzidagi yirik suvlik va quruqliklar — materiklar va okeanlar, ularning qismlari tabiati, ularda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, geografiya fani va uning tarmoqlari, qadimgi va hozirgi zamon geografik tadqiqotlari, ularning mazmun-mohiyati, zamonaviy geografik tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlarini tushuntirish, geografik xaritalar, ularning turlari va xaritalardan foydalanish, geografik koordinatalar, ulardan kundalik hayotda foydalanish masalalari bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: materiklar va okeanlarni o'rgangan sayyohlarning faoliyati, turli materiklar iqlimi, suvlari, tabiat zonalar, okeanlar va ularning yirik qismlari — dengizlar, qo'ltiq va bo'g'izlar tabiati bilan yaqindan tanishtirish.

Yer yuzasining katta qismlari qanday qilib tasvirlanishini va ulardan qanday foydalanish mumkinligini, yer yuzining tabiati, aholisi, uning xo'jaligini, insonning tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish masalalarini tushuntirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: geografik qobiq, uning tuzilishi va xususiyatlari, geografik qobiqning rivojlanish bosqichlari haqidagi qiziqarli ma'lumotlar sayyoramiz iqlimini mo'tadillashtirib, quruqlikni suv bilan ta'minlashda qatnashuvchi dunyo okeani, dengizlar, ulardagi suvning xususiyatlari va materiklar tabiati shakllanishida okeanlarning ahamiyatini tushuntirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, geografik dunyoqarash va tafakkur asosida atrofimizdagi olamni obyektiv holda, sabab-oqibat bog'liqliklari orqali yaxlitligini va ayni paytda xilma-xilligini anglash.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

tabiiy hodisalarni (harorat, yog'inlar) aks ettiradigan jadval, diagramma va grafiklarni tuzish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, interfaol.

Dars jihozi: tarqatma materiallar, darlik, tarsviriy san'at turlariga doir ko'rgazmalar, rasmlar, qalamlar, rasm daftari.

Texnik jihozlar: proyektor, kompyuter, multimedia, slaydlar.

Darsning metodi: og'zaki, suhbat, amaliy va savol-javob.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish, uy

vazifasini bajarilishini ko'zdan kechirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Inson hayoti tabiat bilan bog'liq bo'lgani uchun kishilar qadim zamonlardan o'zlari yashaydigan joy tabiatini yaxshi bilishga harakat qilganlar. Keyinchalik qayiqlar, yelkanli kemalar yasab, dengizlarda suzgan, yangi yerlarni kashf qilganlar. Borgan joylari tabiatini, odamlarning yashash tarzini tasvirlab yozganlar. O'zlari yashaydigan joyning hamda borgan yerlarining eng sodda xaritalarini chizganlar. Shu yo'l bilan geografik ma'lumotlar to'plana borgan. Savdo aloqalarining o'sishi, harbiy yurishlar, uzoq o'lkalarga sayohatlar Yer haqidagi bilimlarning ko'payishiga yordam bergan. Miloddan avvalgi 3-asrda qadimgi yunon olimi Eratosfen Yerning kattaligini ancha aniq hisoblagan. U dunyoning dastlabki xaritalaridan birini tuzgan. Uning xaritasida Janubiy Yevropa, Shimoliy Afrika va Osiyoning g'arbiy qismlari tasvirlangan (2-rasm). Bu xaritaga nisbatan ancha mukammalroq xaritani milodiy 2-asrda Ptolemey tuzgan (3-rasm). Unda Yevropa va Osiyoning katta qismi hamda Afrikaning shimoli tasvirlangan.



2-rasm. Miloddan avvalgi III asrda Eratosfen tuzgan dunyo xaritasi.



**3-rasm. Milodiy II asrda
Ptolemey tuzgan dunyo xaritasi.**

1820- yilning yanvarida F. Bellinsgauzen va M. Lazareveng uzoqda joylashgan, muzlar bilan qoplanib yotgan Antarktida materigini kashf etishdi. O‘zbek geograflaridan Hamidulla Hasanovko‘plab materiklarga sayohat qilgan, sayohatlari davomida ekvatorni ikki marta kesib o‘tgan. Shu sababli H. Hasanov O‘zbek Magellaninomini olgan. O‘rtaosiyolik allomalarning geografik merosini chuqur tahlil qilib, “O‘rtaosiyolik geograf va sayyohlar”, “Sayyoh olimlar”, “Ekvatoridan o‘tganda”, “Qiziqarli geografiya”, “Yer tili”, “Geografik nomlar siri”, “Arktika markazida”, “Al-Xorazmiy geografiyasi”, “Bobur — sayyoh va tabiatshunos” kabi bir qancha asarlar yozgan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1 Eratosfen, Ptolemey, Xorazmiy va Beruniy tuzgan xaritalarini taqqoslang. Ularning o'xshash va farqli jihatlarini yozing.

2 Geografik bilimlarning rivojlanishi va xaritalarning mukammallashib borishi orasida qanday bog‘liqlik bor? Geografik bilimlarning kengayishi xaritalarda qanday aks etgan? Bu haqida do‘stlaringiz bilan muhokama qiling va xulosalaringizni daftarga qayd eting.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.

O'IBDO':

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

39 listdan iborat geografiya fanidan 7-sinf I chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyeu Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**